QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 2-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

QO‘QON XONLIGINING XIX ASRDA OLIB BORGAN TASHQI SIYOSATI VA DIPLOMATIK ALOQALARI

https://doi.org/10.70728/a.series.v08.i02.097

Isoqulova Barchinoy Husniddin qizi
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti magistranti
barchinoyshodiyeva4@gmail.com
Tel: +998933172621

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘rta Osiyo xonliklaridan Qo‘qon xonligining XIX asrdagi tashqi siyosati va diplomatik aloqalari o‘rganiladi.Xonlikning Rossiya imperiyasi ,Qing sulolasidagi Xitoy hamda mintaqadagi Buxoro amirligi ,Xiva xonligi va boshqa davlatlar bilan olib borgan siyosiy aloqalari tahlil qilinadi.shuningdek Qo‘qon xonligining savdo –diplomatik manfaatlari hamda mintaqadagi o‘rni tadqiq qilinadi.

Kalit: Qo‘qon xonligi,minglar sulolasi,tashqi siyosat,Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Umarxon, elchilar, Rossiya imperiyasi,savdo aloqalari,Sharqiy Turkiston, Sibir, chilla, Amir Haydar

Аннотатция: В статье внешняя политика и дипломатические отношения Кокандского ханства ,одного из ханства Средней Азии, в XIX века. Анализируются политические связи Коканде с Российской империей , Китаем периода династии Цин,а также с Бухарским емиратом ,Хивинском ханством и другими государствами региона.Кроме того в работе исследуются торгов-дипломатические интересы Кокандского ханства и его место политической структуре Централной Азии.

Ключевы слова: Кокандское ханство, Династия мингов, внешняя политика, Бухарский емират, Хивинском ханство, Умархан, послы, Китай, Российская империя, торговые отношения, Восточный Туркестан, Сибиръ чилла, Амир Хайдар

Abstract: This article studies the foreign policy and diplomatic relations of the Kokand Khanate one of the Central Asian khanates in the 19th century .It analyzes the political relations of Kokand with the Russians Empire ,Qing dynasty China ,as well as with the Bukhara Emirate ,the Khiva Khanate ,and other regional powers.In addition ,the article explores the trade and diplomatic interests of the Kokand Khanate and its role within the geopolitical structure of Central Asia .

Keywords: Kokand Khanate, Ming dynasty,foreign policy, Emirate of Bukhara, Khanate of Khiva ,Umarkhan, envoys,China, Russian empire, trade relation, Eastern Turkestan,Siberia , chilla, Amir Khaydar

KIRISH. XVIII asr boshlarida mustaqillikka erishganidan so‘ng Qo‘qon xonligida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida o‘zgarishlar sodir bo‘la boshlaydi.Qo‘qon xonligi mintaqada o‘z o‘rniga ega davlatga aylanadi .Qo‘shni mamlakatlar bilan diplomatik aloqalar olib boriladi, elchilik aloqalari yo‘lga qo‘yiladi.Ushbu maqola Qo‘qon xonligining XIX asrda yuritgan tashqi siyosati, diplomatik aloqalarining o‘ziga xos jihatlarini tahlil qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADIQOT METODOLOGIYASI. Qo‘qon xonligi tarixi yoritilgan adabiyotlar va manbalarni shartli ravishda guruhlarga ajratishimiz mumkin.1.Rossiya imperiyasi hukmronligi davridagi tadqiqotlar .2.Sovet davri adabiyoti 1. Зияев Х. Восстание 1826 года в Восточном Туркестане. . Набиев Р. Из истории Кокандского ханства (Феодальное хозяйство Худояр-хана). Бейсембиев Т.К. «Тарихи Шахрухи» – как исторический источник. Бейсембиев Т.К. “Тарихи Шахрухи о Восточном Туркестане” // Из истории Средней Азии и Восточного Туркестана. . Бабабеков Х.Н. Народные движения в Кокандском ханстве и их социально-экономические и политические предпосылки (XVIII–XIX вв.). .3.Mustqaillik davrida nashr etilgan ilmiy tadqiqotlar:Qo‘ldoshev Sh. “Qo‘qon xonligi va Xitoy imperiyasi o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar” Bobobekov H “Qo‘qon xonligi tarixi”, Хафизова К.Ш Китайская дипломатия Централъной Азии .4 .Xorijlik tarixchilarning asarlari:Scott C.Levi. The rise and fall of Khoqand, Bregel Yuri ,The uzbek new states :Bukhara ,Khiva and Khoqand keltirishimiz mumkin.Yuqorida keltirilgan asarlar tahlilidan Qo‘qon xonligining tashqi aloqalaridan qisman xabardor bo‘lishimiz mumkin.Maqolani yozish davomida Tadqiqot metodologiyalaridan ilmiy adabiyotlar tahlili,qiyoslash ,umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Qo‘qon xonligi XVIII asr boshlarida o‘z mustaqilligiga erishdi. Dastlab xonlikning tashkil topish davriga e’tibor qaratadigan bo‘lsak bu davrda Buxoro amirligi va Xiva xonligida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvol oo‘irlashgan bir paytda edi .Bu vaziyatdan foydalanib1709 –yili o‘zbeklarning ming qabilasi o‘zlarini Buxorodan mustaqil,deb e`lon qildilar.Minglar sulolasi Faro‘onada mustaqil davlatga asos soldi va Shohruxbiyni xon deb e’lon qiladilar. Shu tariqa vodiyda 1876 yilgacha hukmronlik qilgan yangi o‘zbek davlati tarix maydoniga keldi.Buxoro xonligida yuz berayotgan voqealar hamda umumiy shart-sharoitlar Qo‘qon xonligining mustahkamlanib olishi va rivojlanishiga yordam berdi.Yirik mulkdorlarning markazga bo‘ysunmaslik harakatlari ,yirik mulkdorlarning soliqlarni to‘lashdan bosh tortishlari,kambao‘al aholining mushkul ahvoli tufayli tinimsiz qo‘zo‘olonlari ,Ubaydullaxon IIning 1708-yilgi pul islohotining salbiy oqibatlari kabilarni shunday shart-sharoitlarga kiritishimiz mumkin .Birinchi hukmdor Shohruxbiy hukmronligi davridan boshlab davlatni mustahkamlash ishlari olib borildi. Qo‘qon xonligi XIX asr boshlarigacha bo‘lgan davrda o‘z mustqilligini mustahkamlashga va chegaralarini

kengaytirishga ahamiyat berdi. o‘z navbatida yaqin qo‘shni davlatlaridan Buxoro amirligi, Xiva xonligi,qozoq juzlari hamda 1759-yili Xitoy ,1810-yilda Rossiya imperiyasi ,1820- yilda Usmoniylar imperiyasi bilan diplomatik aloqalar o‘rnatgan.Xonlik tashkil topgan XVIII asrda Xitoy imperiyasi bilan Sharqiy Turkiston masalasida diplomatik aloqalar olib borgan.Boshqa xorijiy mamlakatlar bilan faol diplomatik aloqalarga XIX asr boshlaridan boshlab kiritishga kirishilgan.Bunga bir necha sabablarni keltirishimiz mumkin.Xonlikda davlatchilik unsurlari shakllanib iqtisodiy,siyosiy jihatdan mustahkamlanib olishi ,savdo yo‘llari kesishgan hamda geostrategic ahamiyatga ega bo‘lgan Toshkentning xonlik hududiga qo‘shib olinishi hamda Rossiya imperiyasining xonlikka xavf solayotganligi edi.

XIX asr boshlarida Qo‘qon xonligida muhim o‘zgarishlar yuz bergan. Xususan Umarxon (1810-1822) Qo‘qon xonligida ichki barqarorlikni ta’minlashga ijtimoiy-madaniy taraqqiy etishga hamda tashqi siyosat yuritishga harakat qilgan.o‘z mavqeyini mustahkamlab olgan xon Buxoro amirligi ta’siridan butunlay qutilish balki o‘rtadagi hududlarni o‘z tasarrufiga kiritish masalasida u bilan raqobat qila boshlagan edi. “Firdavs ul-iqbol” da 1814-1815-yilda Muhammad Rahimhon huzuriga Qo‘qon xoni Umarxondan elchi bo‘lib kelgan Sayyid Muhammad hoji haqida ma’lumot berilsa,keying yillarda ham ikki o‘rtada elchilikklar tez-tez almashib turganligi manbalarda o‘z aksini topgan. Qayd etish joizki , Xiva xonligi va Buxoro amirligi o‘rtasidagi munosabatlarning keskinlashuvi ,o‘z navbatida, Xiva-Qo‘qon aloqalarining mustahkamlanishiga olib kelgan.”Zubdat-ut tavorix” asarida Xiva-Qo‘qon o‘rtasidagi do‘stona aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilgan Xiva elchilari Bobobek,Yaxshimurodbek,Yusufbek, Abdulhalim va Rahmatulloh Qorako‘zlar hamda Qo‘qon elchilari Qorabosh dodxoh ,Muhammad Karimbiylarning ismlari keltirilgan.Shuningdek Xiva xonligi ko‘p hollarda Qo‘qon xonligi sulolasining halokatga uchragan vakillari uchun siyosiy boshpana sifatida ham ahamiyatga ega bo‘lgan .Qo‘qon xoni Murodxon ikki siyosiy vaziyat, aniqrog‘i, o‘zining noloyiq xatti-xarakatlari tufayli arkoni davlatning noroziligiga uchrab, mamlakatdan chiqib ketgach, qariyb o‘ttiz yil g‘arib diyorlarda ovora bo‘lib yurgan kezlarda (1844) Xorazmdan ham panoh topgan edi. Xiva-Qo‘qon o‘rtasidagi o‘ziga xos ittifoqchilik Buxoro amrini ko‘p hollarda tang ahvolga solar ,Xiva-Buxoro munosabatlarining tez-tez buzilishiga sabab bo‘lar edi.

XIX asrdagi Buxoro va Qo‘qon munosabatlari xonlik tarixiga oid manbalarda va bu manbalar asosida tadqiqotchilar ham ijobiy bo‘lgan degan fikrni aytishmaydi. Amir Haydar va Umarxon o‘rtasidagi yozishmalar o‘rganilganda bu ikki davlat hukmdorlari yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini olib borishga intilganlar deyish mumkin .Ammo Amir Haydarning uzoq va yaqin qo‘shni davlatlar bilan diplomatik aloqalar o‘rnatishga intilgan .Shu bois u Rossiya ,Usmoniylar imperiyasi,Eron ,Xiva va Qo‘qon xonliklari,qozoq juzlariga ham o‘z elchilarini yuborgan .Shu bilan birga Sharqiy Turkistonni o‘z ta’sir doirasiga olish maqsadida Xitoy bilan diplomatik munosabatlarni o‘rnatishga harakat qilgan.Lekin bu qarama-qarshiliklar ikki davlat o‘rtasidagi savdo aloqalarini to‘xtatib qo‘ya olmagan. Qo‘qon tovarlari nafaqat Buxoroda xattoki Buxorodan Kobulga olib borib sotilgan. Qo‘qon

karvonining birinchisi Buxoroga yozning boshida va ikkinchisi kuzning oxirida kelgan,kichik karvonlar esa yil davomida qatnab turgan. Qo‘qondan Buxoroga eksport qilinadigan asosiy tovarlar ipak va ipak gazlamalar bo‘lib har yili 8 ming pudgacha keltirilgan. Eng sifatli ipak “chilla” deb atalib u Qo‘qonda ishlab chiqarilgan. XIX asr o‘rtalariga kelib Rossiya imperiyasining xavfi tufayli uchta xonlik o‘rtasidagi aloqalar xarakterida o‘zaro yordam ,rus qo‘shinlariga qarshi kurashda hamkorlik masalasi yetakchi o‘ringa chiqadi.

Qo‘qon xonligi va Rossiya imperiyasi bilan munosabatlari nisbatan kechroq boshlangan. Bunga xonlikning Rossiyadan uzoqda joylashganligi asosiy omillardan biri sifatida ko‘rsatiladi . Rossiyaning Qo‘qon xonligi bilan aloqalari Sibir orqali amalga oshiriladi.1806-yilda Sibir inspeksiyasining Rossiya savdo-sotiq vaziri N.P Rumyansevga bergan ma’lumotida Qo‘qonga savdo karvonini jo‘natganligini xabar qilgan.Biroq savdogar Qo‘qonga yetib kelmasdan ,Turkistondan orqaga qaytib ketgan .Navbatdagi Rossiyadan Qo‘qonga jo‘natilgan kalugalik savdogarlar Ivan va Akim Sveshnikovlar karvoni 1811-yilda Qo‘qon xonligiga muvaffaqiyatli yetib kelishgan.Qo‘qon xonligi bilan savdo-sotiqni birinchi marta yo‘lga qo‘yishga Musharraf bo‘la olgan Ivan va Akim sveshnikovlar rus hukumati tomonidan munosib taqdirlanadilar.Rossiyadan savdo karvoni kelganidan so‘ng Umarxon rus hukumatiga Sibir orqali erkin savdo munosabatlarini yo‘lga qo‘yish uchun murojaat qilgan .Bu Peterburg hukumron doiralari manfaatlariga mos kelganligidan foydalangan Aleksandr I uni qo‘llab quvvatlaydi .Rus hukumati tomonidan jo‘natilgan ekspeditsiya va elchilarga maxsus topshiriqlar bergan.Qo‘qon va Rossiya ikki davlat o‘rtasida do‘stona savdo –iqtisodiy aloqalar o‘rnatilishidan manfaatdor bo‘lgan hamda ikki mamlakat o‘rtasida elchilik,savdo-sotiqning rivojlanishiga xizmat qilgan.Ammo XIX asr boshlarida Rossiya bilan Qo‘qon xonligi o‘rtasida boshlangan do‘stlik muhitidagi aloqalar asr o‘rtalariga kelib Rossiya imperiyasining dushmanlik kayfiyati bilan almashadi .

Qo‘qon xonligi hamda Xitoy o‘rtasida azaldan savdo-sotiq aloqalari yo‘lga qo‘yilgan va ikki davlat o‘rtasida munosabatlar mavjud edi. Qo‘qon xonligining Xitoy bilan ilk diplomatik aloqalari 1759-yildan esa boshlangan bo‘lib birinchi xitoy elchisi Daketana nomi bilan boo‘liq.1809-yildan 1876-yilgacha esa manjurlar saroyiga 10 marta elchi yuborilgan.Ushbu .XIX asrdagi elchilik aloqalariga qo‘qon xonlaridan Olimxon va Umarxon davrida yana rivojlandi .

Qo‘qon xonligi hamda Xitoy o‘rtasidagi savdo aloqalari uzoq davrlarga borib taqaladi.Qo‘qon xonligining Xitoy (Ching imperiyasi) bilan ilk diplomatik aloqalari 1759 yildan boshlangan bo‘lib, Qo‘qon xonligiga yuborilgan birinchi xitoy elchisi Daketana nomi bilan bog‘liqdir. XVIII asrdagi diplomatik munosabatlar ushbu davrda ham davom etadi. 1809-yilda Olimxon Pekinga Oxunjon ismli elchini yuborgan .Saroy ma’muriyati dastlab ularni qabul qilmoqchi bo‘lgan .Ammo ,keyinchalik bu elchilarni imperator huzuriga kiritilmagan .Buning sababi sifatida Qo‘qon xonining maktubidagi noaniq so‘zlari bo‘lgan.Qashqar noibi Na Yanchen ushbu noaniq so‘zlarni tushuntirish uchun Chjun Anni ham elchilarga qo‘shib jo‘natgan.1809-yili Qo‘qon elchisi boshchiligida elchilar guruhi bilan

uchrashuvda Qashqarga kelgan qo‘qon mollarini ikki baravar soliq va bojdan butunlay ozod qilishga va’da bergan 1810-yilda muzokaralar natijasida imperator tomonidan vada qilinganidek ,qo‘qon savdogarlarini butunlay soliqdan ozod etmasada ,uning hajmi ikki foizga pasaytirilgan.Keyingi hukmdor Umarxon davrida ham aloqalar davom etgan.Uning davrida xonlikda doimiy ravishda manjurlar hukumatining elchisi yashagan. Manbalarda keltirilishicha Umarxon Sharqiy Turkistonga Qo‘qon xonligi va CHing imperiyasi o‘rtasidagi o‘zaro savdoni rivojlantirish ,Sharqiy Turkistondagi Qo‘qon savdogarlarning huquqlarini himoya qilish uchun muzokaralar olib boorish masalasida Qashqarga Zuxur devonbegini yuborganligi haqida ma’lumotlar berilgan.Shuningdek Zuxur devonbegi bilan birga borgan Umarxonning o‘gli Abdullohbek ni Qashqarga Qo‘qon oqsoqoli ya’ni vakil davlat sifatida tayinlanganligi yozilgan. Qo‘qon xonligining Xitoy bilan aloqa o‘rnatishga sabablaridan biri bir necha minglik qo‘qonlik savdogarlarga butun Shinjon bo‘ylab shahar va qishloq bozorlarida o‘z tarmoo‘ini kengaytirishga ruxsat berish muhimroq edi.

XULOSA. Qo‘qon xonligi XIX asrda o‘z qo‘shni davlatlar bilan yaqin diplomatik savdo-iqtisodiy aloqalar o‘rnatganligi manbalarda ma’lum.Xususan Xitoy bilan hududiy yaqin bo‘lganligi sababli xitoy tovarlari bilan boshqa hududlarni ham ta’minlay olgan. Buxoro amirligi ,Xiva xonligi bilan aloqalar o‘rnatgan Rossiya bilan ma’lum davr mobaynida aloqalar olib borishga harakat qilgan

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston tarixi. VII jild. O‘zbekiston diplomatiyasi tarixidan. – Toshkent: Ma’naviyat, 2023.

2. Haydarbek Bobobekov. Qo‘qon xonligi tarixi. – Toshkent, 1996.

3. Alimova R.R. O‘rta Osiyo xonliklarining qo‘shni davlatlar bilan diplomatik va savdo aloqalari. – Toshkent, 2017.

4. Qo‘ldashev Sh. Qo‘qon xonligi va Xitoy (Ching imperiyasi) o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar. – Toshkent, 2019. – 80 b.

5. Topildiyev N. Qo‘qon xonligining Rossiya bilan diplomatik aloqalari tarixidan. – Toshkent: Fan, 2007.

6. Scott C. Levi. The Rise and Fall of Khoqand, 1709–1876. – Pittsburgh: University of Pittsburgh Press, 2017. (Ayniqsa 56–59-betlar XIX asr tashqi siyosatiga oid muhim tahlillarni beradi.)

7. Аллаева Н. Хива хонлигининг дипломатияси ва савдо алоқалари (XVI–XIX асрлар). – Тошкент, 2019. – 201 б.

8. Qosimov Y. Qo‘qon xonligi tarixi. – Namangan, 1994.

9. Qo‘qon asrlar silsilasida. – Qo‘qon, 2004.